



**XALQ DEPUTATLARI SHO'RCHI TUMANI
KENGASHINING QARORI**

Sho'rchi tumani, Mustaqillik ko'chasi 72-uy. 191500, tel.: (+99876) 457-45-73

2022 йил «14» июл

VI-48-103-8-120-K/22

Шўрчи туман ҳокимлиги

Mahalliy budjet daromadlari bajarilishi holati, qo'shimcha rezervlarni aniqlash bo'yicha qilingan ishlar, shuningdek soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar kesimida budjetga hisoblangan va amalda to'langanligi, ular bo'yicha soliq qarzdorligi yuzasidan 2022-yilning o'tgan davri mobaynida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tuman davlat Soliq inspeksiyasi boshlig'i Sh.Zokirovning hisoboti to'g'risida

Sho'rchi tumaniga 2022-yil budjet daromadlari uchun jami 83,5 milliard so'm prognoz ko'rsatkichlari belgilangan. Xususan, soliq turlari kesimida - jismoniy shaxslar daromad solig'i – 36,1 milliard so'm, jismoniy shaxslar mol-mulk va yer soliqlari – 16,5 milliard so'm, korxonalar aylanmasi solig'i – 10 milliard so'm, yuridik shaxslar mol-mulk va yer soliqlari – 1,4 milliard so'm, boshqa soliq va to'lovlar hisobi – 19,6 milliard so'm tasdiqlangan. 2022-yilda budjetga belgilangan rejani 87,2 milliard so'mga ortig'i bilan ya'ni 3,7 milliard so'mga ta'minlash hisob-kitob qilingan. Ushbu hisob-kitoblar quyidagi manbalar hisobidan bajarilgan.

Jumladan, amalda hisoblanadigan soliqlar (nachisleniya) hisobidan 54,5 milliard so'mi (63 %), majburiy ijro byurosi bilan hamkorlikda soliq qarzini undirish hisobidan 8,7 milliard so'mi (10 %), kameral nazorat natijasida qo'shimcha hisoblangan soliq to'lovlarini undirish hisobidan 2,2 milliard so'mi (3 %), elektron hisob varaq fakturalarni tahlil qilish hisobidan 0,9 milliard so'm (1 %), faoliyatini to'xtatgan korxonalar faoliyatini tiklash, yangi investitsiya loyihalarinii shgatushirish hamda ish o'rinalarini legallashtirish hisobidan 0,3 milliard so'm (0,2 %), nol hisobot topshirgan subyektlar faoliyatini tahlil qilish hisobidan 0,3 milliard so'm (0,1 %), boshqa yo'nalishlar hisobidan 20,1 milliard so'm (23 %)ni tashkil etgan.

2022-yil uchun budget daromadlari (kontingent) prognoz ko‘rsatkichlari hududiy soliq to‘lovchilari bo‘yicha jami 41,1 milliard so‘m belgilangan bo‘lib, haqiqatda joriy yilning 22-iyun holatiga 41,1 milliard so‘m mablag‘lar undirilgan yoki belgilangan reja 50 foizga bajarilgan. 2022-yilning ikkinchi choragi uchun budget daromadlari (kontingent) prognoz ko‘rsatkichlari hududiy soliq to‘lovchilari bo‘yicha jami 21,3 milliard so‘m bo‘lib, haqiqatda joriy yilning 1-iyun holatiga ko‘ra 13,9 milliard so‘m mablag‘ undirilgan yoki belgilangan reja 65,3 foizga bajarilgan. 2022-yil 1-yanvar holatiga 1282 ta xo‘jalik yurituvchi subyektlarni budgetga to‘lovlar bo‘yicha jami 2,1 milliard so‘m soliq qarzdorliklari mavjud bo‘lib, 2022-yil 1-iyun holatiga 1312 ta subyektlarda jami soliq qarzdorligi 2,3 milliard so‘mni tashkil etib, yil boshiga nisbatan 30 ta xo‘jalik yurituvchi subyektlarda 0,2 milliard so‘mga yoki 9,9 foizga oshgan.

Ushbu qarzdorliklar soliq turlari kesimida tahlil qilinganda yer solig‘i 0,13 milliard so‘mni, mol-mulk solig‘i 0,06 milliard so‘mni, suv solig‘i 0,01 milliard so‘mni, aylanmadan olinadigan soliq 0,6 milliard so‘mni, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i 1,1 milliard so‘mni, boshqa soliqlar 0,9 tashkil etilganligi inobatga olinib, bildirilgan fikr mulohazalardan kelib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi” Qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari Sho‘rchi tumani Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Mahalliy budget daromadlari bajarilishi holati, qo‘srimcha rezervlarni aniqlash bo‘yicha qilingan ishlar, shuningdek soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar kesimida budgetga hisoblangan va amalda to‘langanligi, ular bo‘yicha soliq qarzdorligi to‘g‘risida tuman davlat Soliq inspeksiyasi boshlig‘i SH.Zokirovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Norqulov), tuman davlat Soliq inspeksiyasi (SH.Zokirov), Moliya bo‘limi (D.Mirzayev)larga:

- tuman mahalliy budgetining 2022-yil chorakma-chorak daromad prognoz ko‘rsatkichlarini so‘zsiz va barcha manbalari bo‘yicha sifatli bajarish;

- qo'shimcha soliq bazalarini aniqlash, budgetdagi boqimanda qarzdorlikni bartaraf etish choralarini ko'rsin.

3. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (SH.Zokirov) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib:

- soliqlarning to'liq va to'g'ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o'z vaqtida budgetga undirilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish;

- yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo'yicha doimiy tahlillar o'tkazgan holda, soliqlarning to'liq hisoblanishini ta'minlash hamda ushbu soliq to'lovlari bo'yicha soliq qarzdorligiga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish;

- aylanmadan soliq turi bo'yicha soliq to'lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to'liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o'rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o'tkazish;

- tumandagi barcha turdag'i tadbirkorlik subyektlarida termenallar o'rnatilishini nazorat qilish, shu bilan birgalikda onlayin nazorat kassa mashinalarini ko'paytirish va ularning ustidan nazorat o'rnatish;

- yer va mol-mulk solig'inining soliq bazasini oshirish, ya'ni xatlov ishlarini samarali tashkil etib borish;

- jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ'ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e'tibor qaratsin.

4. Ushbu qaror bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rnbosari J.Norqulov hamda xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (SH.Bo'ranov) zimmasiga yuklatilsin.

5. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Xalq deputatlari tuman Kengashi
raisi



Xudoyberganov B.X